MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQIY VA NOVERBAL MULOQOT RIVOJLANISHINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Samarqand Kimyo Xalqaro Universiteti Logopediya yo`nalishi MSPD-S-251U magistri Imomova Madina Azamat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha (3–6 yosh) hamda kichik maktab yoshidagi (7–10 yosh) bolalarda nutqiy (verbal) va noverbal muloqot vositalarining o‘zaro uzviy hamda bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmlari chuqur va atroflicha tadqiq etiladi. Bolalar ontogenezida ekspressiv nutq, jestikulyatsiya, mimika, panteomimika hamda intonatsion-prosodik komponentlarning sinxron hamda kompensatorlik xususiyatlari zamonaviy neyropsixologik (A.R. Luriya, A.J. Ayres), psixolingvistik (M. Tomasello, S. Goldin-Meadow, E. Bates) va mahalliy logopedik (L.R. Muminova, M.Y. Ayupova) konsepsiyalar asosida yoritilgan. Tadqiqotda nutq buzilishlari (dizartriya, alaliya) bor bolalarda noverbal signalizatsiyaning desinxronlashuv hamda kompensatsiyalash xususiyatlari o‘rganilib, ularning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik modellar va tavsiyalar taqdim etiladi. **Kalit so‘zlar:** verbal muloqot, noverbal muloqot, ontogenez, ekspressiv nutq, jestikulyatsiya, prosodika, neyropsixolingvistika, korreksion logopediya, muloqot kompetensiyasi, sensor integratsiya, kompensatsiya. **Аннотация:** В данной статье подробно исследуются механизмы взаимосвязанного и поэтапного развития вербальных и невербальных средств общения у детей дошкольного (3–6 лет) и младшего школьного возраста (7–10 лет). На основе современных нейропсихологических (А.Р. Лурия, А.Д. Айрес), психолингвистических (М. Томаселло, С. Голдин-Медоу, Э. Бейтс) и отечественных логопедических (Л.Р. Муминова, М.Ю. Аюпова) концепций освещаются синхронные и

компенсаторные характеристики экспрессивной речи, жестикуляции, мимики, пантомимики и интонационно-просодических компонентов в онтогенезе детей. В исследовании изучены особенности десинхронизации и компенсации невербальной сигнализации у детей с речевой патологией (ОНР, дизартрия, алалия), а также представлены инновационные педагогические модели и рекомендации, направленные на повышение их социально-коммуникативной компетенции. **Ключевые слова:** вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, онтогенез, экспрессивная речь, жестикуляция, просодика, нейропсихолингвистика, коррекционная логопедия, коммуникативная компетенция, сенсорная интеграция, компенсация. **Abstract:** This scientific article explores the mechanisms underlying the interconnected and progressive development of verbal and non-verbal communication means in preschool (ages 3–6) and primary school children (ages 7–10). Based on modern neuropsychological (A.R. Luria, A.J. Ayres), psycholinguistic (M. Tomasello, S. Goldin-Meadow, E. Bates), and local speech therapy (L.R. Muminova, M.Y. Ayupova) frameworks, the synchronous and compensatory characteristics of expressive speech, gesticulation, facial expressions, pantomimics, and intonational-prosodic components in child ontogenesis are highlighted. The study investigates the desynchronization and compensatory features of non-verbal signaling in children with speech disorders (general speech underdeveloped, dysarthria, alalia) and provides innovative pedagogical models and recommendations aimed at improving their social and communicative competence. **Keywords:** verbal communication, non-verbal communication, ontogenesis, expressive speech, gesticulation, prosody, neuropsycholinguistics, speech therapy, communicative competence, sensory integration, compensation.

Zamonaviy maxsus pedagogika, logopediya va neyropsixolingvistika sohasining eng ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri — bu bolaning ijtimoiy-

kommunikativ rivojlanish jarayonini yaxlit, ko‘p darajali va ko‘p komponentli tizim sifatida tadqiq etishdir. Insoniyat jamiyatidagi muloqot faoliyati faqatgina verbal (so‘z vositasidagi) belgilar tizimidan iborat bo‘lib qolmay, u noverbal (imo-ishora, mimika, panteomimika, kinestetik hamda intonatsion-prosodik) signalizatsiya bilan uzviy, sinxron va funksional bog‘langan. Uzoq yillar davomida an’anaviy logopedik va pedagogik yondashuvlarda asosiy e’tibor bolalarning faqat verbal nutq ko‘rsatkichlarini — lug‘at boyligini kengaytirish, fonetik talaffuzni shakllantirish va grammatik qurilishni to‘g‘rilashga qaratib kelindi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlar va neyrovizualizatsion tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayonini noverbal signallardan ayri holda samarali korreksiya qilib bo‘lmaydi.

Maktabgacha yosh (3–6 yosh) va kichik maktab yoshi (7–10 yosh) bolaning kognitiv doirasi, ruhiy jarayonlari hamda tildan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishida keskin burilish davri hisoblanadi. Ontogenetik rivojlanishda noverbal signallar shunchaki og‘zaki nutqqa qo‘shimcha bezak emas, balki nutq paydo bo‘lishidan avvalgi va uning shakllanishini harakatlantiruvchi bazaviy neyrofiziologik poydevor vazifasini o‘taydi. Bolada verbal nutq shakllanmasidan ilgari ham atrof-muhitni anglash, o‘z ehtiyojlarini bildirish hamda atrofdagilar bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish aynan kinestetik, vizual va mimik kanallar orqali amalga oshadi.

Ayniqsa, nutq patologiyasiga ega bo‘lgan (nutqning umumiy rivojlanmaganligi, dizartriya, motor va sensor alaliya, duduqlanish va b.) bolalarda muloqot to‘siqlarini bartaraf etish hamda ularning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda verbal va noverbal muloqotning korrelyatsion munosabatini chuqur va har taraflama tahlil qilish nihoyatda katta nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Nutqiy vositalari cheklangan bolada noverbal signalizatsiya muloqotdagi uzilishlarning o‘rnini bosuvchi (kompensatsiyalovchi) va his-tuyg‘ularni yetkazuvchi asosiy kanallardan biriga aylanadi. Ushbu muammoni

neyropsixolingvistik va pedagogik jihatdan tizimli tadqiq etish zamonaviy korreksion ta’lim samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ontolingvistik va neyropsixologik izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, tildan foydalanishdan avvalgi kognitiv tayyorgarlik aynan noverbal harakatlar orqali amalga oshadi. Mashhur psixolingvist S. Goldin-Meadow (2017) o‘zining fundamental tadqiqotlarida ta’kidlashicha, bolaning 12–18 oylik davrida namoyon bo‘ladigan deiktik (ko‘rsatish) va ikonik (tasvirlash) jestlari uning kelajakdagi lug‘at boyligi hajmini va ilk sintaktik iboralarning paydo bo‘lish muddatini aniq ko‘rsatib beruvchi neyro-kognitiv prediktor hisoblanadi. Bola so‘zni talaffuz qilishdan 2–3 oy avval shu tushunchani jest orqali ifodalay boshlaydi. M. Tomaselloning (2014) ijtimoiy-pragmatik nazariyasiga ko‘ra, birgalikdagi diqqat va noverbal vizual signalizatsiyasiz bola so‘zning semantik va kontekstual mazmunini anglab yetolmaydi. Kichik maktab yoshida esa noverbal vositalar muloqotning ekspressiv-ritmik va regulyativ vazifasini o‘z ustiga oladi. E. Bates va F. Dick (2012) tomonidan o‘tkazilgan neyroimagining tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, inson miyasida qo‘l va yuz motorikasini boshqaruvchi neyron tarmoqlari nutqiy artikulyatsiya zonalari bilan parallel ravishda faollashadi. Bu esa gestual va verbal signallarning bitta umumiy neyronal baza orqali boshqarilishini isbotlaydi.

O‘zbekiston logopediya va maxsus pedagogika maktabi namoyandalari L.R. Muminova va M.Y. Ayupovalarning ilmiy izlanishlarida ta’kidlanishicha, nutqida og‘ir buzilishlar bo‘lgan o‘zbek tilli bolalarda verbal ekspressiya cheklanganda jestikulyatsiya va emotsional-ekspressiv harakatlar yo jadal kompensatorlik xarakterini oladi yoki umumiy psixomotor tormozlanish natijasida qashshoqlashadi. Shu sababli logopedik ta’sirlarda har ikkala kanalni birga rivojlantirish zaruriyati kelib chiqadi.

Ontogenezda verbal va noverbal muloqotning bosqichma-bosqich integratsiyasi

Bolaning o‘sish davrida verbal va noverbal muloqot vositalari bir-biridan ayri holda rivojlanmaydi, aksincha, ular murakkab va bosqichma-bosqich integratsiyalashgan evolyutsion yo‘lni bosib o‘tadi. Biz ushbu jarayonni 3 ta asosiy bosqichga ajratib tahlil qilamiz:

Ilk ontogenez va maktabgacha kichik yosh davri (1–3 yosh): Bu davrda noverbal vositalar mutlaq dominantlikka ega. Bola so‘zlarni to‘liq talaffuz qila olmagani sababli o‘z ehtiyojlari, quvonchi va e’tirozlarini jestlar, qichqiriq, vizual nigoh va tana holati orqali namoyon etadi. Deiktik (ko‘rsatish) jestlari bolaning kognitiv jihatdan atrof-muhitdagi predmetlarni obyektlashtirish va ajratib ko‘rsatish qobiliyatini shakllantiradi.

Kengaytirilgan maktabgacha yosh davri (4–6 yosh): Verbal nutqning jadal shakllanishi bilan noverbal vositalar ikkinchi darajaga tushib qolmaydi. Aksincha, ular verbal nutq bilan sinxron va integral tizimni hosil qiladi. Bola voqeani so‘zlab berayotganda nafaqat so‘zlardan, balki mimika, intonatsion siljishlar hamda tasvirlovchi jestlardan faol foydalanadi. Noverbal vositalar bu bosqichda nutqning emotsional va mazmuniy boyligini ta’minlaydi.

Kichik maktab yoshi davri (7–10 yosh): Maktab ta’limiga o‘tish va yozma nutqning o‘zlashtirilishi munosabati bilan muloqot xarakteri sezilarli o‘zgaradi. Noverbal muloqot regulyativ va ijtimoiy-konvensional funksiyani o‘z ichiga oladi. O‘quvchi qachon va qayerda jest ishlatish mumkinligini, o‘qituvchi bilan muloqotda nigoh va tana holatini qanday tutish lozimligini o‘zlashtiradi.

Tipik va atipik rivojlanayotgan bolalarda muloqot komponentlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari

Muloqot parametri	Tipik rivojlanayotgan bolalar (norma)	Nutqida nuqsoni bor bolalar (atipik)

Jest va so`z mutanosibligi	Jest va so`z bir vaqtda, sinxron qo`llaniladi; so`z ma`nosini to`liq boyitadi.	Jestlar so`z o`rnini bosishga intiladi (kompensatsiya)yoki o`ta sust va qashshoq bo`ladi
Mimik eksprissiya	Vaziyatga va nutqiy mazmunga mos ravishda egiluvchan, dinamik va boy.	Amimiklik, gipomimika yoki nutq intonatsiyasiga mos kelmaydigan dezsinxron reaksiyalar.
Prosodika va intonatsiya	Ovoz balandligi, tempi va ritmi nutqiy vaziyatga mos ravishda doimiy o`zgaradi	Monotonlik, ovoz tembrining buziliishi, intonatsion vositalardan foydalana olmaslik
Nigoh va visual muloqot	Suhbatdosh bilan barqaror nigoh kantaktini saqlaydi, noverbal signallarni uqadi	Nigoh kontaktidan qochish, suhbatdoshining mimikasini noto`g`ri talqin qilish.

Nutq nuqsonlari bor bolalarda noverbal muloqotning kompensatorlik va desinxronlashuv xususiyatlari

Nutq patologiyasiga ega bo‘lgan (NTR III-darajasi, dizartriya, motor alaliya) bolalarda verbal va noverbal vositalar o‘rtasidagi tabiiy balans va sinxronlik buziladi. Amaliy va eksperimental logopedik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarda noverbal muloqot ikki xil asosiy modelda namoyon bo‘ladi:

Giper-kompensatsiyalanuvchi model: Ekspressiv lug‘ati qashshoq va grammatik qurilishi shakllanmagan bola muloqotga kirishish ehtiyojini qondirish uchun giper-jestikulyatsiyaga murojaat qiladi. U har bir tushunchani, harakatni qo‘l, gavda va o‘tkir mimika orqali tushuntirishga urinadi. Bu holat bolaning muloqot ehtiyoji yuqori ekanligidan va uning kognitiv doirasi saqlanganligidan dalolat beradi.

Desinxronlashgan va tormozlangan model: Ba’zi neyrodinamik va artikulyatsion buzilishlarda (dizartrik komponentlar, gipotonus, psixomotor tormozlanish) bola nafaqat gapira olmaydi, balki uning mimikasi va jestikulyatsiyasi ham qotib qolgan (gipomimik) bo‘ladi. Natijada bola muloqotdan butunlay uzilib, ijtimoiy va kommunikativ izolyatsiyaga tushib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi muloqot kompetensiyasi va psixomotor to‘siqlar

Kichik maktab yoshiga kelib, bolada tengdoshlari va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish ehtiyoji bir necha barobar ortadi. Agar ushbu davrda nutq nuqsoni bartaraf etilmagan va noverbal muloqot to‘g‘ri yo‘naltirilmagan bo‘lsa, o‘quvchida quyidagi salbiy psixopedagogik muammolar yuzaga keladi:

Logofobiya va muloqotiy nevroz: Bola o‘z talaffuzidan yoki javob bera olmasligidan uyalib, muloqotdan butunlay chekinadi va passiv holatga o‘tadi.

Noverbal belgilarni noto‘g‘ri talqin qilish: Suhbatdoshining hazardli mimikasi yoki jestini o‘ziga nisbatan tajovuz deb biladi, natijada jamoada agressiv yoki passiv-himoyaviy xulq-atvorni namoyon etadi.

Yozma nutq va matnni tushunishdagi qiyinchiliklar: Og‘zaki nutqda intonatsion-prosodik hamda noverbal belgilarni his qilmaslik keyinchalik matnni o‘qishda mantiqiy urg‘u va tinish belgilarining ma’nosini anglab yetmaslikka olib keladi.

Nutq buzilishlari bor bolalarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish shunchaki so‘z o‘rgatishdan iborat emas. U verbal va noverbal signalizatsiyani bir vaqtda va tizimli korreksiya qilishni talab etadi. Ushbu maqsadga erishish uchun logopedik va korreksion-pedagogik jarayonga quyidagi metodik yondashuvlarni tatbiq etish tavsiya etiladi:

Vizual-interaktiv va zamonaviy pedagogik texnologiyalar

Lepbuk va Vizual jadvallar: Bolada tasavvurni shakllantirish bilan birga, harakatli vizual elementlar orqali barmoq motorikasi hamda kinestetik harakatlarni nutq bilan moslashtirish. **PECS va Muqobil muloqot kartalari:** Og‘ir nutq

nuqsonli bolalarda belgi-simvolik faoliyatni shakllantirish va ushbu visual signallar orqali og‘zaki nutqqa bosqichma-bosqich o‘tish. **Multimediya:** Interaktiv didaktik topshiriqlar va video-modellash orqali bolalarda noverbal signallarni va nutqiy reaksiyalarni oldindan kuzatib, darsda amaliy qo‘llash. ----**Sensor integratsiya mashg‘ulotlari:** A.J. Ayres nazariyasiga asoslangan holda, bolaning o‘z tanasini his qilishini (proprioseptsiya) hamda fazoviy orientatsiyasini oshirish. Tana koordinatsiyasi yaxshilangan sari jestlar va artikulyatsion apparat harakatlarining aniqligi ortadi. **Neyro-mashqlar va kinestetik mashg‘ulotlar:** Ikki qo‘l harakatini bir vaqtda muvofiqlashtiruvchi va miya yarim sharlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni rivojlantiruvchi mashqlar (barmoqlar va til harakatlarini sinxronlashtirish). Mashg‘ulotlarga turli emotsional holatlarni (xursandchilik, ajablanish, havotir) mimika va intonatsiya orqali ko‘rsatib beruvchi etyud va o‘yinlarni kiritish lozim. Bu bolada noverbal belgilarni "o‘qish" va o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmasini hosil qiladi.

XULOSA

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy va noverbal muloqotning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy, neyropsixologik va amaliy tahlillar quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

Yagonalik va integratsiya: Bolaning muloqot faoliyati verbal va noverbal vositalarning ajralmas, yagona neyropsixologik tizimidan iborat. Noverbal vositalar nutq ontogenezining poydevori hisoblanadi.

Kompensatorlik mexanizmi: Nutq patologiyasi mavjud bo‘lganda noverbal signalizatsiya bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim kompensatorlik vazifasini bajaradi. Biroq, to‘g‘ri pedagogik yo‘nalish berilmasa, u muloqotdagi nuqsonlarni to‘liq yopa olmaydi.

Kompleks yondashuv zarurati: Maxsus va inklyuziv ta’lim muassasalarida korreksion-logopedik ishlarni tashkil etishda e’tiborni faqat talaffuz va lug‘atga

qaratmay, bolaning noverbal muloqot madaniyati, emotsional ekspressiyasi va sensor-motorik ko‘nikmalarini ham birga rivojlantirish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Vygotskiy, L. S. (2019). Mishleniye i rech [Thinking and speech]. Moscow: Natsionalnyy obrazovatelnyy tsentr.

Luriya, A. R. (2020). Osnovy neyropsikhologii [Fundamentals of neuropsychology]. Saint Petersburg: Piter.

Tomasello, M. (2014). A Natural History of Human Thinking. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Goldin-Meadow, S. (2017). How Gesture Helps Us Think and Learn. Current Directions in Psychological Science, 26(3), 212–219.

Bates, E., & Dick, F. (2012). Language, gesture, and the brain. Neuropsychologia, 40(7), 931–945.

Ayres, A. J. (2018). Sensory Integration and the Child: 25th Anniversary Edition. Los Angeles: Western Psychological Services.

Muminova, L. R. (2021). Logopediya va maxsus pedagogikaning dolzarb muammolari. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

Ayupova, M. Y. (2020). Logopediya: Darslik. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.

Shibakova, E. N. (2021). Non-verbal communication in speech therapy practice. Journal of Special Education, 14(2), 45-52.

Volkova, G. A. (2019). Logopedicheskaya ritmika. Moscow: VLADOS.